



## ETHNODESIGN: HARMONY OF TRADITION AND MODERNITY

Rakhimova Kamola Gayratovna

Allanazarova Nozima Batyr Kyzi

Turdiyeva Maftuna Eshmamat Kyzi

[raximovakamola96@gmail.com](mailto:raximovakamola96@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17394509>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 19<sup>th</sup> October 2025

Online: 20<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

*Ethnodesign, tradition, modernity, national motifs, design integration.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the concept of ethnodesign and the interrelationship between tradition and modernity. Using examples such as national motifs, fabrics, embroidery, and traditional clothing, it examines how traditional elements adapt and undergo aesthetic renewal in contemporary design. Furthermore, it provides information about the trends of ethnodesign in the works of Uzbek designers, its constituent elements, socio-cultural significance, and practical applications.*

## ЭТНОДИЗАЙН: ГАРМОНИЯ ТРАДИЦИЙ И СОВРЕМЕННОСТИ

Рахимова Камола Гайратовна

Алланазарова Нозима Батыр Кызы

Турдиева Мафтуна Эшмамат Кызы

[raximovakamola96@gmail.com](mailto:raximovakamola96@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17394509>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 19<sup>th</sup> October 2025

Online: 20<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

*Этнодизайн, традиционность, современность, национальный орнамент, интеграция в дизайн.*

### ABSTRACT

*В данной статье анализируется понятие этнодизайна и его связь между традиционностью и современностью. На примере национальных орнаментов, тканей, вышивки и национальной одежды исследуется, как традиционные элементы адаптируются в современных дизайнах и обновляются эстетически. Также рассматриваются тенденции этнодизайна в творчестве дизайнеров Узбекистана, его составные элементы, социально-культурное значение и практическое применение.*

## ETNODIZAYN: AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI

Raximova Kamola G'ayratovna

Allanazarova Nozima Botir Qizi

Turdiyeva Maftuna Eshmamat Qizi

[raximovakamola96@gmail.com](mailto:raximovakamola96@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17394509>



## ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 19<sup>th</sup> October 2025

Online: 20<sup>th</sup> October 2025

## KEYWORDS

*Etnodizayn, an'anaviylik, zamonaviylik, milliy bezak, dizayn integratsiyasi.*

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada etnodizayn tushunchasi, uning an'anaviylik va zamonaviylik unsurlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Milliy bezaklar, matolar, naqshlar va tikuvchilik san'ati misolida an'anaviy elementlarning zamonaviy libos dizaynida qanday moslashuvi va estetika jihatdan yangilanishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistan misolida dizaynerlar ijodida etnodizayn tendensiyalarining rivojlanishi, tarkibiy elementlari, ijtimoiy-madaniy ahamiyati va amaliy qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi.*

**Kirish.** Etno – (yunoncha ethnos – xalq, millat, elat) bu madaniyat, urf-odatlar, qadriyatlar, til, tarixiy an'analar bilan bog'liq omillarni bildiradi.

“Dizayn” (italyancha disegno – chizma, tasvir; inglizcha design) – estetik va funksional ob'ektlar yaratish san'ati yoki loyihalash jarayonini anglatadi.

Etnodizayn - bu xalqning madaniy va estetik qadriyatlarini zamonaviy dizayn vositalari orqali ifodalash va tiklashga qaratilgan faoliyat turi. U turli milliy elementlar - bezak, naqsh, mato, libos shakli, me'moriy shakl, amaliy san'at unsurlarini zamonaviy san'at, moda, grafik dizayn, interyer dizayn va boshqa sohalarda uyg'unlashtirishga asoslanadi.

Asosiy xususiyatlariga quyidagilarni misol bo'ladi:

- madaniylik – etnodizayn har bir millatning o'ziga xos madaniy ko'rinishini estetik shaklda ifodalaydi.
- identiklik – bu biror guruhga, millatga, madaniyatga yoki ijtimoiy qatlamga mansublik hissi, shuningdek, bu guruhni boshqa guruhlardan ajratib turadigan xususiyatlarning majmuasidir.
- innovatsiya – an'anaviy shakl va ramzlarni zamonaviy texnologiya bilan uyg'unlashtiradi.
- barqarorlik – ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muvozanatli dizayn yondashuvini qo'llaydi.

Qo'llanilish sohalari esa moda dizayni (liboslar, aksessuarlar), grafik dizayn (logotiplar, nashr dizayni), interyer dizayn (milliy bezaklarda ishlangan mebellar, devor naqshlari), arxitektura (milliy motifli shakllar, fasad bezaklari), sanoat dizayni (idishlar, mehnat qurollari, turistik suvenirilar). Ko'plab tadqiqotchilar etnodizaynni nafaqat san'at yoki moda yo'nalishi, balki madaniyatshunoslik, antropologiya, iqtisod, marketing kabi fanlar bilan bog'laydilar. U milliy brend yaratishda, turizmni rivojlantirishda, ta'lim va madaniy diplomatiya vositasi sifatida ham qaraladi.



**1-rasm. Irodaagzam kolleksiyasi.**

Dizayn sohasida “etnodizayn” atamasi an’anaviy madaniy meros va zamonaviy san’at, moda, dekorativ-amaliy san’at o’rtasida ko’prik vazifasini bajaradi. Bu tushuncha milliy shakllar, naqshlar, tekstura va ranglar orqali madaniyatning saqlanishi va yangilanishini anglatadi. O’zbekistonda boy madaniy merosga ega atlas, adras, kashta bezaklari, xalq amaliy san’ati va boshqalar. Bugungi kundagi modaga e’tibor bersangiz, milliylik global tendensiyalar bilan uyg’unlashmoqda. Maqolaning maqsadi shundaki, an’anaviylik bilan zamonaviylik o’rtasidagi uyg’unlikni tahlil qilish, faktlar asosida misollar keltirish va etnodizayn sohasi uchun tavsiyalar berishdir.

Etnodizayn elementlarining an’anaviy va zamonaviy dizayndagi aks etishi

**1-jadval**

<b>No</b>	<b>Etnodizayn elementi</b>	<b>Milliy uslubdagi ifoda</b>	<b>Zamonaviy dizayndagi aks etishi</b>	<b>Misollar / Dizaynerlar</b>
<b>1</b>	<b>Matolar</b>	Beqasam, atlas, adras to’qimasida tayyorlangan	Sun’iy ipak, kombinatsiyalangan matolar	Ruxsora Aslonova kolleksiyasi
<b>2</b>	<b>Naqshlar</b>	"Bodom", "oyjamol", "qushko’z" naqshlari	Stilizatsiya qilingan naqshlar (minimalist shaklga keltirilgan)	Samarqand textile brendi
<b>3</b>	<b>Ranglar</b>	Qizil, yashil, ko’k va boshqa ranglar	Rang palitrasi zamonaviy moda talablariga moslashtirilgan	Fashion Week Uzbekistan
<b>4</b>	<b>Kashtachilik</b>	Qo’lda tikilgan kashta, so’zana va zardo’zi	Mashinada ishlov berilgan, lazer orqali naqsh tushirilgan matolar	“Bibi Hanum” liboslar brendi



5	<b>Libos shakli</b>	Keng va uzun, tarpetsiya bichimli, uzun yengli, belbog'li	Kalta, beldan tor, zamonaviy siluetlar	Milliy kolleksiya + moda trendlari
6	<b>Bezak elementlari</b>	Rangli matel va toshlar, charm, yog'och kabi tabiiy materiallar	Sun'iy materiallar: plastmassa, metallardan yasalgan aksessuarlar	Eko-brend "Ziroat Design"
7	<b>Ramziy ma'no</b>	Har bir elementda madaniy, diniy, tabiatga oid tushunchalar	Dekorativ-estetik yondashuv, ramzlar estetik vosita sifatida	"Ethno Mood" dizayni

Etnodizayn va uning tarkibiy elementlari - naqsh va bezak, o'zbek bezak san'ati (kashtachilik, atlas-adras nusxalari, so'zani va boshqalar) an'anaviy naqshlarning xilmaxilligi va ranglarini uyg'unligi bilan ajralib turadi [1]. Matolari va teksturasi esa atlas, adras, ipak matolar, ularning an'anaviy to'qilishi, ranglar va tekstura jihatidan ifodalari. Tikuvchilik va hunarmandchilik texnikalari: qo'l kashtasi, zardo'zlik kabi hunarmandchilik elementlari. Madaniy ramz va metaforalik elementlar: motiyalar (flora, geometrik, zoomorfik), ranglarning madaniy konnotatsiyalari. Masalan, odamlar uchun yashil rang tabiat, hayot, rivojlanishni anglatadi; qizil rang - quvonch, mehr-shafqat.

An'anaviylikdan zamonaviylikka moslashish misollari Moda dizaynida: Dizayner Ruxsora Aslonova ijodida milliy an'analar (naqsh, ipak matolar, kashta) zamonaviy libos shakllari bilan birlashtirilgan [2]. Interier dizayn va me'morchilik yo'nalishi o'zbekiston me'morchiligida an'anaviy dekorativ elementlar va motiflar zamonaviy interyer va arxitektura dizayniga moslashtirilmoqda. [3]

Rang va naqshlarning inson psixologiyasiga ta'sir qiladi misol uchun, "The Influence of Ikat and Color Palette on Traditions and Modernity in Uzbekistan" <sup>1</sup>maqolasida ikat naqshlari va rang palitrasining odamtalabi va estetik sezgi tomonidan qanday qabul qilinishi tahlil qilingan. [5]

Ijtimoiy va madaniy ahamiyati ham mavjud bo'lib asosiy vazifasi madaniy merosni saqlashdir. An'anaviy naqsh va hunarmandchilik texnikalarini zamonaviy kontekstdagi loyihalarda saqlash, yosh avlodga o'rgatish muhim hisobalandi. Brend yaratish, global moda bozorida milliy tus beradigan dizayn brendlari ko'proq qadrlanmoqda - xalqaro ko'rgazmalarda O'zbekiston milliy liboslari e'tiborni tortmoqda [4]. Hunarmandchilik va qo'l ishlab chiqarish usullari ekologik jihatdan toza va inson organizmiga kamroq zarar beradi, mahalliy resurslardan foydalanish, tayyor mahsulotlarning uzoq muddatga yetishini taminlaydi. An'anaviy matolar va bezaklar muhofazasi, ularning ishlash muddatini saqlash, rangi, sifatini yo'qotmaslik lozim.

<sup>1</sup>[https://www.researchgate.net/publication/387584083\\_The\\_Influence\\_of\\_Ikat\\_and\\_Color\\_Palette\\_on\\_Traditions\\_and\\_Modernity\\_in\\_Uzbekistan](https://www.researchgate.net/publication/387584083_The_Influence_of_Ikat_and_Color_Palette_on_Traditions_and_Modernity_in_Uzbekistan)



Maqolada etnodizaynning asosiy mohiyati - an'anaviy madaniy meros va zamonaviy dizayn yondashuvlari o'rtasida uyg'unlik yaratish ekani ta'kidlangan. O'zbek xalqining boy milliy merosi - atlas, adras, kashtachilik, naqsh va ranglar kabi elementlar zamonaviy texnologiyalar va dizayn trendlari bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashmoqda. Etnodizayn milliy identitetni saqlash bilan birga, kreativ yondashuv va innovatsion g'oyalar orqali yangi estetik shakllarni yaratishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan misollar, jumladan, mashhur dizaynerlar va brendlar tajribasi, etnodizaynning turli sohalarda (moda, grafik dizayn, arxitektura, interyer) keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu yo'nalishning ijtimoiy-madaniy va ekologik ahamiyati ham yoritilgan.

**Xulosa:** Etnodizayn - bu o'tmish va bugunning, milliylik va global zamonaviylikning o'zaro bog'liqligini ifoda etuvchi estetik ko'priklar bo'lib, O'zbekiston misolida u madaniy merosni saqlash, yangilash va jahon miqyosida targ'ib qilishda muhim rol o'ynamoqda.

### References:

1. "Kashtachilik (Embroidery)", Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan. [Ich.uz](http://ich.uz)
2. Patterns of Cultural Identity — The Art of Uzbek Ornaments, Visit Uzbekistan. [Visit Uzbekistan](http://VisitUzbekistan)
3. Traditional Crafts of Uzbekistan in Modern Interior Design, Journal Society. Integration. Education. [journals.rta.lv](http://journals.rta.lv)
4. Milliylik va zamonaviylik uyg'unlashgan liboslar: Ruxsora Aslonova – UZA maqolasi. [Uza.uz](http://Uza.uz)
5. The Influence of Ikat and Color Palette on Traditions and Modernity in Uzbekistan, European Journal of Arts, Humanities and Social Sciences. [ejahss.com](http://ejahss.com)
6. Rakhimova K.G. "Talabalarga imkoniyati cheklangan bolalar kiyimlarini tikish usullarini o'rgatish texnikasi" Eurasian journal of academic research page 142-148 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11263298>
7. Rakhimova Kamola Gayratovna "CREATING A RANGE OF MODERN CLOTHES FOR GIRLS" American Journal Of Applied Science And Technology page 13-18 Volume 04 Issue 07-2024 <https://www.theusajournals.com/index.php/ajast/article/view/3340>
8. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdami qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Ijodiy manbadan foydalanib kostyum dizayni loyihasini yaratish texnologiyasi" eurAsian JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 101-108 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545303>
9. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdami qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 109-114 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545775>
10. Raximova Kamola G'ayratovna "Issiqni saqlash xossasi yuqori bo'lgan gazlamalardan chaqaloqlar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 page 115-122 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545839>



11. Sultanova F. Toshbekov O. Bo'lajak muhandislarga raqamli texnologiyalar asnosida o'qitish tizimlari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2024. 4(5), 16–21.
12. Тошбеков О., Мустанова З. Анализ основных физико-механических характеристик шерсти в нашей республике. *Евразийский журнал академических исследований*, 2024. 4(4), 152–158.
13. Урозов, М. К., Тошбеков, О. А., Рахимова, К., & Бобомуродов, Э. (2022). Жун толаси диаметри ва нотекислиги аниқлаш. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 789-791.
14. Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К. Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари. *Eurasian Journal Of Academic Research*. 2022. Vol 2, № 13. P. 784–788; [01.00.00, №5<sup>1</sup>].
15. Тошбеков О., & Мустонова З. Олинган нотўқима матонинг ишқаланишга чидамлилигини ва шовқинни ютишга юқори мослашувчанлик хоссаларини аниқлаш. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12 Part 2), 2023.217–221.
16. Тошбеков О., Рахимқулова С. Дағал жун толалари асосида олинган (автомобил, авиятсия, кемасозлик) саноати учун қўлланилган нотўқима мато тайёрлаш. *Евразийский журнал академических исследований*, (2023). 3(12 Part 2), 211–216.
17. Toshbekov, O., Urazov, M., Ermatov, S., & Khamraeva, M. 2023). Efficient and economical energy use technology in the processing of domestic coarse wool fiber. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 461, p. 01068). EDP Sciences.